CHO‘LPONNING “KECHA VA KUNDUZ” ROMANINING INGLIZ TILIGA TARJIMASIDA SINEKDOXANING IFODALANISHI (KRISTOFOR FORT TARJIMASI ASOSIDA)

Siddiqova Iroda Abduzuhurovna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston milliy universiteti
Filologiya fanlari doktori, professor

Aripova Kamola Yusupovna
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
O‘zbek va xorijiy tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanining Kristofer Fort tomonidan qilingan ingliz tilidagi tarjimasida sinekdoxa stilistik vositasining ifodalanishiga bag‘ishlangan. Unda metonimiya, metafora va sinekdoxa kabi obrazli til vositalarining o‘xshash vazifalari va o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Matnda sinekdoxa metonimiyaning bir turi sifatida ko‘rib chiqilib, unda biror narsaning bir qismi orqali butun narsa yoki butun orqali uning bir qismi ifodalanishi tushuntiriladi. Matnda Jon Bikmen va B.Nerlich kabi tilshunoslarning sinekdoxaga bergan ta’riflari va bu stilistik vositaning metonimiyadan farqli jihatlarini chuqurroq o‘rganish zarurligi haqidagi fikrlari keltiriladi.
Kalit so’zlar: Sinekdoxa, metonimiya, kognitiv lingvistika, kognitivizm psixolingvistlar, sotsiolingvist.

Annotation: This article focuses on the expression of the stylistic device of synecdoche in the English translation of Cholpon's novel "Night and Day" by Christopher Fort. It analyzes the similar functions and interrelation of figurative language devices such as metonymy, metaphor, and synecdoche. The article considers synecdoche as a type of metonymy, explaining how it involves expressing a whole through a part or a part through a whole. Uzbek language. The article also presents the definitions of synecdoche given by linguists such as John Bikmen and B. Nerlich, and their views on the need for a deeper study of this stylistic device, distinguishing it from metonymy.
Keywords: Synecdoche, metonymy, cognitive linguistics, cognitivism psycholinguistics, sociolinguist.

Аннотация: Данная статья посвящена выражению стилистического приема синекдохи в английском переводе романа Чулпана «Ночь и день», выполненном Кристофером Фортом. В ней анализируются схожие функции и взаимосвязь таких средств образного языка, как метонимия, метафора и синекдоха. В статье синекдоха рассматривается как один из видов метонимии, объясняется, как целое выражается через часть или часть через целое. В статье также приводятся определения синекдохи, данные такими лингвистами, как Джон Бикмен и Б. Нерлих, и их мнения о необходимости более глубокого изучения этого стилистического приема с выделением его отличий от метонимии.
Ключевые слова: Синекдоха, метонимия, когнитивная лингвистика, когнитивизм психолингвистика, социолингвист.

Metonimiya, metafora, sinekdoxa – bular obrazli tilning komponentlari hisoblanib, ularning barchasi o‘zaro o‘xshash vazifalarda ishlatiladi. Bu stilistik vositalar o‘zida bir narsa haqida ma’lumot aks ettiradi, biz esa ularda yashiringan boshqa ma’nolarni anglab olamiz. Metonimiya, yuqoridagi boblarda ko‘rib chiqqanimizdek, biror narsa yoki hodisani unga aloqador

bo‘lgan boshqa narsa-hodisa nomi bilan atashni bildiruvchi ko‘chim turi hisoblanadi. Sinekdoxa stilistik vositasi ham metonimiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi, biroq sinekdoxada nutqimizda ishtirok etayotgan aloqador qism, asosan, biz ifodalamoqchi bo‘lgan narsaning bir bo‘lagi bo‘ladi. Qachonki biz “olti og‘izni qanday boqaman?” jumlasini ko‘rganimizda, uning tarkibida sinekdoxa qatnashganligini bilishimiz zarur: “og‘iz” deyish orqali insonlar nazarda tutilmoqda. Bu holatni, xuddi metonimiya singari, bir tushunchani qayta nomlash jarayoni deb o‘ylashimiz mumkin, biroq bu yerda metonimiyadan ko‘ra boshqacharoq holat mavjud: aslida insonlarga ishora qilayotgan “og‘iz” so‘zi insonga aloqador bo‘lgan tashqi narsa emas, balki insonning bir qismi, tana a’zosidir.

Sinekdoxa nutqning birligi hisoblanib, biror narsani to‘liq holatda tushunishga ishora sifatida, unga oid bo‘lgan ma’lum bir qism nomini nutqda qo‘llashni anglatadi. Sinekdoxa atamasi yunon tilidan olingan bo‘lib, “synechdoche” - “doimiy ma’no”, “birga nazarda tutmoq” deb tarjima qilinadi. Sinekdoxada bir tushunchani anglatish uchun uning kichik parchasi, tarkibiy qismini uning o‘rnida qo‘llash tushuniladi, biroq xuddi shu narsa uning aksi uchun ham amal qilishini aytib o‘tish lozim. Ya’ni, biz biror narsani ifodalash uchun bu parchani o‘z ichiga oluvchi kattaroq bir narsani nutqda qo‘llashimiz mumkin. Masalan, sinekdoxa mavzusida ko‘pincha namuna sifatida keltiriluvchi “qo‘limni kesib oldim” jumlasi “qismdan butun” ma’nosini aks ettiradi. Inson, aytaylik, pichoqdan foydalanib, biror narsani maydalash jarayonida barmog‘ini jarohatlab olishi mumkin. Bu holatda barmoqning kichik qismiga shikast yetishi “qo‘lini kesib olmoq” tarzida aks ettiriladi. Insonning “barmoq” ma’nosini ifodalash uchun “qo‘lni kesib olmoq” ifodasini qo‘llashi orqali sinekdoxa yuzaga keladi. Barmoq esa qo‘lning qismi hisoblanadi, ya’ni, sinekdoxaning hosil bo‘lishiga asos bo‘luvchi holatlarning birinchisi – “qismdan butun” tushunchasi bu yerda aks etmoqda. Ikkinchi holat esa “butundan qism” ma’nosini aks ettirib, biror narsani ifodalashda bu narsaning o‘zini nutqda qo‘llamasdan, uning tarkibiy qismini bu tushunchaning o‘rnida ishlatishni bildiradi. O‘zbek tilida “butundan qism” ma’nosi asosida qurilgan sinekdoxa sifatida “tirnoqqa zor” frazeologik birikmasini misol keltirishimiz mumkin. “Tirnoqqa zor” iborasi o‘zbek tilida keng qo‘llanuvchi frazeologik ifoda hisoblanib, “O‘zbek tili frazeologizmlarning izohli lug‘ati”da uning ma’nosi “farzand ko‘rmaslik, befarzandlik o‘kinchi bilan yashamoq deb keltiriladi[3]. Bunga ko‘ra, “tirnoqqa zor bo‘lmoq” iborasidagi “tirnoq” so‘zi ko‘chma ma’noda qo‘llanib, bu so‘z orqali “farzand” ma’nosi ko‘zda tutilmoqda. Tirnoq inson tanasining bir qismi bo‘lgani holda u butun bir insonga ishora qilib kelib, “butundan qism” mazmuni asosida sinekdoxani hosil qilmoqda.

Jon Bikmen o‘zining ma’no ko‘chish usullarini tatbiq etishga bag‘ishlangan maqolasida sinekdoxaga quyidagicha ta’rif beradi: “ Sinekdoxa xuddi metonimiyaga o‘xshash birlik bo‘lib, uning asosida ham tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlik yotadi. Sinekdoxani shakllantirish butun narsani uning kichik bir qismiga teng miqdorga tushirish va kichik qismni uning butun holatiga tenglashtirib qo‘yish orqali bo‘ladi”[4]. Nottingem universiteti professori, jamiyatshunos-tilshunos olima B.Nerlich sinekdoxani chuqurroq o‘rganish kerakligini ta’kidlab, shunday deydi: “Ba’zi nazariyotchilarning fikricha, sinekdoxa metonimiya asosidagi ma’no ko‘chish guruhining tarkibiga kiruvchi birlik hisoblanib, boshqa hech qanday alohida xususiyatga ega emas. Biroq, bizningcha, sinekdoxani metonimiyaning bir qismi sifatidagina ko‘rish bilan cheklanish noto‘g‘ri. Sinekdoxaning metonimik asosda qo‘llanilishdan tashqari vazifalari ham mavjud bo‘lib, ularni chuqurroq tahlil qilib o‘rganish tilshunoslar oldidagi vazifalardan biri bo‘lishi kerak”[5]. Olimaning fikrlari ko‘pchilik tilshunoslar, jumladan, kognitiv tilshunoslar, psixolingvistlar, sotsiolingvist olimlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi va so‘nggi yillarda sinekdoxani metonimiyadan ayri holda tasavvur etib, uni chuqurroq tadqiq etish ustida fan doirasida bir qancha izlanishlar amalga oshirildi. Mashhur o‘zbek tilshunos olimi Bahodir Mengliev sinekdoxaga quyidagicha ta’rif beradi: “Sinekdoxa deganda biror narsaning nomi bilan uning biror qismini atash va, aksincha,

[3]Раҳматуллаев Ш. “Ўзбек тили фразеологизмларининг изоҳли луғати”. – Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 2022. – 499 б.
[4] Beekman J. Metonymy and Synecdoche. Notes on Translation. – Oxford, 1967. – 12 б.
[5] Nerlich B.,.Burkhardt A. Tropical truths: The epistemology of Metaphor and other Tropes. – Walter de Gruyter&Co Illustrated edition, 2010.

biror narsaning qismi bilan u mansub butunni atash tushuniladi. Metonimiya kabi sinekdoxada ham narsaning o‘z nomi bo‘ladi. Shunchaki butun-qism munosabati bo‘lgan birliklar biri ikkinchisi nomi o‘rnida ishlatiladi”[6]. B.Mengliev sinekdoxadagi butun va qism munosabatiga ta’rif berar ekan, “qo‘l” so‘zining “barmoq” ma’nosida ishlatilishiga namuna sifatida o‘zbek tilidagi xalq maqollariga murojaat qilib, “Besh qo‘l barobar emas” misolini keltiradi. Xalqimiz orasida keng qo‘llanuvchi bu maqolda ham sinekdoxa asosidagi ma’no ko‘chishi mavjud, ya’ni jumlada qo‘llanayotgan “qo‘l” so‘zi orqali aslida qo‘lning barmoqlariga ishora qilinmoqda. Insonning beshta qo‘li bo‘lishi mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi, demak tinglovchi bu so‘zning ko‘chma ma’noda ishlatilayotganini tushunib oladi. Sinekdoxaning, umuman, boshqa uslubiy birliklar(metafora, metonimiya)ning faoliyat jarayoni ham aynan shundan iborat: ya’ni, nutqda ma’lum bir so‘z yoki so‘z birikmasi tilga olinadi, biroq tinglovchi u orqali boshqa narsa ifoda etilayotganini tushunib oladi. Metonimiya hamda sinekdoxa o‘rtasidagi farqli jihatlarga doir izlanishlar natijasida turli qarashlar yuzaga keldi. Ularning aksariyati kognitiv lingvistika sohasi olimlarining turli tadqiqot ishlari, o‘zaro bahs-munozaralari bilan bog‘liq. Sinekdoxani metonimiyaning tarkibiy qismi sifatida cheklab qo‘ymasdan, uning leksik-semantik xususiyatlarini kengroq o‘rgangan olimlardan biri mashhur kognitiv tilshunos P.Ulmen hisoblanadi. Uning firkiga ko‘ra, metonimiyaning hosil bo‘lishida “yonma-yonlik” tamoyili asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu “yonma-yonlik”ni aloqadorlik ma’nosida tushunadigan bo‘lsak, metonimiyani hosil qilayotgan so‘zning real hayotdagi biror tushunchaga aloqador bo‘lishi, nutqda uni uchratgan tinglovchi bevosita u ishora qilgan narsani ilg’ab olishga sabbab bo’ladi. Sinekdoxada esa ikki tushuncha bir-biriga shunchaki aloqador bo‘lish bilan cheklanmaydi. “Yonma-yon” bo‘lishdan farqli o‘laroq, sinekdoxada nutqda qo‘llangan so‘z u orqali ifodalanayotgan ma’noning tarkibiy qismi bo‘ladi (yoki aksincha). Tilshunos olimlar Gunter Radden hamda Zoltan Koveses shunday deydi: “ma’no ko‘chishining boshqa turlarida manba domen aniq ko‘rinib turadi, majoziy ma’noda qo‘llanayotgan so‘z bilan u anglatgan tushuncha o‘rtasidagi o‘xshashlik, aloqadorlik munosabati ochiq ko‘rinib turadi. Sinekdoxada esa manba domen aniq ajralib turmaydi, “butun-qism” munosabatini anglab olish nutqni qabul qiluvchilarga qiyinchilik tug‘dirishi mumkin”.

Umuman olganda, sinekdoxa, odatda, inson tana qismlariga nisbatan ko‘p qo‘llanishini ta’kidlab o‘tish lozim. Olimlar tomonidan sinekdoxaning asosiy ikki turi farqlanadi: mikrokozm va makrokozm. “Mikrokozm” yuqorida keltirib o‘tilgan “qism orqali butunni ifodalash”ning fandagi nomi bo‘lsa, “makrokozm” deganda “butun orqali qism”ni aks ettirishning ilmiy nomi tushuniladi. Shuningdek, aynan nimani ifodalashiga ko‘ra sinekdoxik ma’noning quyidagi turlari farqlanadi:

Sinekdoxani tadqiq etishda e’tibor berish kerak bo‘lgan bir jihat shundaki, sinekdoxaning hosil bo‘lishi boshqa ko‘chim turlaridan farqli bo‘lishi bilan bir qatorda ularga nisbatan tilda kam uchraydigan hodisa sanaladi. Ma’no ko‘chishining boshqa turlari: metafora, metonimiya, mubolag‘a vositalarining til faoliyatida keng hamda erkin tarzda qo‘llanishiga asosiy sabab, bizningcha, ularni o‘zimiz yaratishimiz mumkinligidadir. Boshqacha qilib aytganda, so‘zlovchi o‘z nutqiy faoliyati davomida turli o‘xshatishlar, tushunchalarning bog‘liqligi asosida metafora va boshqa ko‘chimlarni nutqqa olib kiradi. Mubolag‘a stilistik vositasi ham xuddi shunday: so‘zlovchi o‘zi ifodalayotgan fikr nima haqida bo‘lishidan qat’i nazar, uni bo‘rttirib ifodalash uchun mubolag‘ani ishga sola oladi. Ushbu ko‘chim turlaridan bir martalik birikmalar hosil qilinganda, ularning tilda avvaldan mavjudligi yoki yo‘qligi e’tiborga olinmaydi. Ular kontekst mazmuniga, nutqiy vaziyatga qarab turlicha bo‘lishi mumkin. Bir martalik metafora, metonimiya, mubolag‘a vositalarini “Kecha va kunduz” romanida ko‘plab uchratishimiz mumkin, bu yozuvchining yuksak badiiy mahoratidan, ijodiy yaratuvchanlik qobiliyatidan darak beradi. Biroq sinekdoxa asosidagi ma’no ko‘chishi tilda keng qo‘llanilmagani singari, badiiy ijodda ham unchalik ko‘p uchramaydi. Bunga sabab qilib esa sinekdoxani bir martalik qo‘llash uchun o‘ylab topish holatlari tilda deyarli mavjud emasligini ko‘rsatish mumkin. Nisbatan murakkab jarayon

[6] Менглиев Б.Р. Ҳозирги ўзбек тили (кириш, фонетик сатҳ, лексик-семантик сатҳ) / дарслик. – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2018. – 200 б.

hisoblangan sinekdoxa tilning shakllanish tarixi, qo‘llanish sohalari, xalqning turmush tarzi kabi omillarga bog‘liq tarzda uzoq muddat davomida tarkib topadi va til tarkibiga ko‘chadi. Shu tufayli hozirda qo‘llaniladigan sinekdoxik ko‘chimlarning barchasi tilda iboralar, boshqa frazeologik birliklar tarzida o‘z o‘rnini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Averintsev S.S. Philology. // M.: Russian language. Encyclopedia, 1979.
2. Арипова К. Ю. The distinctive features of translation of the novel “Night and day”. Международный журнал искусство слова. – М., 2021. – 4(1-2).
3. Alekseytseva T.A. Explication as a way to overcome interlingual and intercultural asymmetries in translation: Dissertation... candidate of philol. sciences. – St. Petersburg, 2009.
4. Alisova T.B., Repina T.A., Tariverdieva M.A. Introduction to Romance Philology. – M.: Higher School, 2007. – 453 p.
5. English-Russian and Russian-English dictionary (short). Ed. O. S. Akhmanova and E. A. M. Wilson. – M.: Russian language, 1990. – 1056 p.
6. Anichkov I.E. Idiomatics among linguistic sciences. // Anichkov I.E. Works on linguistics. - St. Petersburg: Nauka, 1997. – P.101 - 145.
7. Antipov G.A., Donskikh O.A., Markovina I.Yu., Sorokin Yu.A. Text as a cultural phenomenon. – Novosibirsk: Science; Sib. department, 1989. –196 p.
8. Apresyan Yu.D. About the works of I.E. Anichkov on idiomatics // Anichkov I.E. Works on linguistics. – St. Petersburg: Nauka, 1997. – pp. 70 - 87.
9. Arakin V.D. Comparative typology of English and Russian languages. – L.: Enlightenment, 1979. – 259 p.
10. Arutyunova N.D. Problems of morphology and word formation (based on the Spanish language). – M.: Languages of Slavic cultures, 2007. – 288 p.